

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 829,7 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 13,8 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 354,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,8 %), qishloq aholisi soni 475,0 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **13,8 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **18,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,3 mingta nikoh** va **1,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2018-2019 yillar 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	815,8	829,7	101,7
Guliston sh.	88,2	89,0	100,9
Shirin sh.	18,5	18,5	100,0
Yangiyer sh.	41,6	42,4	101,9
tumanlar:			
Oqoltin	50,2	50,9	101,4
Boyovut	124,9	127,2	101,8
Guliston	68,9	70,6	102,5
Sayhunobod	74,6	75,9	101,7
Mirzaobod	69,7	71,2	102,2
Sardoba	63,4	64,7	102,1
Sirdaryo	123,8	125,7	101,5
Xovos	92,0	93,6	101,7


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 127,2 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 %ni) va Sirdaryo tumanida 125,7 ming kishini (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,5 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 42,4 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Guliston tumanida 2,5%ni, Mirzaobod va Sardoba tumanlarda 2,1 %ni, Yangiyer shahrida 1,9%ni, Sayhunobod va Xovos tumanlaridada 1,7%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Guliston shahrida 0,9% ni va Shirin shahrida 0,1 %ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	erkak	ayol
Sirdaryo viloyati	416,7	413,0
Guliston sh.	44,4	44,6
Shirin sh.	9,0	9,5
Yangiyer sh.	21,2	21,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	25,6	25,3
Boyovut t.	64,4	62,8
Guliston t.	35,0	35,6
Sayhunobod t.	37,9	38,0
Mirzaobod t.	37,0	34,2
Sardoba t.	32,8	31,9
Sirdaryo t.	62,7	63,0
Xovos t.	46,7	46,9

Hududlar kesimida aholi zichligi (2019 yil 1 yanvar holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 18,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,3 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega ko'paygan (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 21,8 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Yangiyer shahrida (21,3 promilledan 22,2 promillega), Boyovut tumanida (22,3 promilledan 23,3 promillega) va Sardoba tumanida (22,8 promilledan 23,2 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Shirin shahrida (18,1 promilledan 16,6 promillega) va Mirzaobod tumanida (25,1 promilledan 24,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar:
8,9
ming nafar

O'g'il bolalar:
9,4
ming nafar

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi (yanvar-dekabr)

	2017 y.	2018 y.	O`shish sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	17627	18327	104,0
Guliston sh.	1757	1727	98,3
Shirin sh.	334	307	91,9
Yangiyer sh.	875	932	106,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1121	1130	100,8
Boyovut	2767	2936	106,1
Guliston	1597	1584	99,2
Sayhunobod	1645	1729	105,1
Mirzaobod	1732	1753	101,2
Sardoba	1434	1487	103,7
Sirdaryo	2462	2607	105,9
Xovos	1903	2135	112,2

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 3,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 5,0 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Yangiyer shahrida (5,8 promilledan 4,8 promillega) Mirzaobod (5,0 promilledan 4,4 promillega), Sirdaryo (6,2 promilledan 5,4 promillega) Xovos (4,6 promilledan 3,9 promillega), Sayhunobod (4,5 promilledan 4,2 promillega), tumanlarida kuzatilgan bo'lib aksincha Oqoltin tumanida (4,0 promilledan 4,1 promillega) o'sish holati kuzatildi.


Vafot etganlar



Erkaklar:
2,1 ming
kishi

Ayollar:
1,7 ming
kishi

Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi (yanvar-dekabr)


	2017 y.	2018 y.	O`sinh sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	4042	3790	93,8
Guliston sh.	503	469	93,2
Shirin sh.	95	97	102,1
Yangiyer sh.	237	202	85,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	201	205	102,0
Boyovut	535	537	100,4
Guliston	341	347	101,8
Sayhunobod	330	319	96,7
Mirzaobod	346	309	89,3
Sardoba	260	264	101,5
Sirdaryo	767	679	88,5
Xovos	417	362	86,8

Demografik holat

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,7 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,1 %i o'simtalardan, 8,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,7 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 9,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 221 nafarni tashkil etib, ularning 52,4 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 11,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 14,2 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 11,1 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 9,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Nikoh. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 10,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan barcha hududlarda kamayish kuzatilgan bo'lib asosan eng yuqori kamayish sur'atlari Guliston (82,1 %), Sirdaryo (89,6 %), Sardoba (82,7%), Mirzaobod (85,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Guliston (131,3 %), Xovos (115,6 %) va Sardoba (112,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	8309	10,1
Guliston sh.	817	9,2
Shirin sh.	145	7,8
Yangiyer sh.	467	11,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	533	10,5
Boyovut t.	1283	10,2
Guliston t.	745	10,7
Sayhunobod t.	739	9,8
Mirzaobod t.	775	11,0
Sardoba t.	676	10,6
Sirdaryo t.	1196	9,6
Xovos t.	933	10,1

Demografik holat

Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	1111	1,4
Guliston sh.	227	2,6
Shirin sh.	20	1,1
Yangiyer sh.	78	1,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	55	1,1
Boyovut t.	144	1,1
Guliston t.	84	1,2
Sayhunobod t.	66	0,9
Mirzaobod t.	56	0,8
Sardoba t.	63	1,0
Sirdaryo t.	207	1,7
Xovos t.	111	1,2

Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-dekabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O`shish sur`ati %da	2017 y.	2018 y.	O`shish sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	7414	8309	112,1	1095	1111	101,5
Guliston sh.	784	817	104,2	205	227	110,7
Shirin sh.	129	145	112,4	31	20	64,5
Yangiyer sh.	419	467	111,5	83	78	94,0
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	458	533	116,4	54	55	101,9
Boyovut	1223	1283	104,9	133	144	108,3
Guliston	612	745	121,7	64	84	131,3
Sayhunobod	634	739	116,6	71	66	93,0
Mirzaobod	662	775	117,1	67	56	83,6
Sardoba	559	676	120,9	56	63	112,5
Sirdaryo	1072	1196	111,6	235	207	88,1
Xovos	862	933	108,2	96	111	115,6

Migratsiya. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 9,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,7 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,7 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	7,7	8,6
Ko'chib ketganlar	8,4	9,3
Migratsiya saldosi	-0,7	-0,7

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Guliston shahrida (minus 0,5 ming kishi), Oqoltin tumanida (minus 0,2 ming kishi) qayd etildi.

